



S.B. QORAYEV

PEDAGOGIKA

*Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim
yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA MAXSUS O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

S.B.Qorayev

PEDAGOGIKA

*Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim
yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma*

- 13758/45 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

«ZEBO PRINT»
TOSHKENT - 2022

UO'K: 37.013(075.8)
KBK: 74.6ya73

p.f.n., dots. **S.B.Qoriyev. "Pedagogika"**. O'quv qo'llanma. – T.: "ZEBO PRINT" nashriyoti. – 2022. – 196 b.

Bugungi kunda «Pedagogika» fanining nazariy va amaliy asoslari davr talablari va davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirilmoqda. Mazkur o'quv qo'llanmada pedagogika fanining nazariy va metodologik asoslariga, mazmuni, tarkibiy qismlariga, ularning vazifalariga jiddiy e'tibor berilgan, shu bilan birga, pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rni, o'qituvchining pedagogik va kommunikativ qobiliyati, muloqot madaniyati, ta'lim oluvchilar bilan muloqoti, pedagogik nazokat va odob-axloq, pedagogik texnika haqida tushuncha, o'qituvchining tarbiyachi sifatidagi mahorati, tarbiya texnologiyalari asosida faoliyat olib borishi, komp'yuter texnologiyalaridan foydalanishi hamda o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish kabilar yoritilgan.

Qo'llanmadan ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik faoliyat yo'naltirishida ta'lim olayotgan talaba va magistrantlar o'z faoliyatlarida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

F.A.Babashov – O'zbekiston milliy Universiteti dotsenti. p.f.n.

Sh.A.Abdugajilova – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti. p.f.n.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19 iyuldagi 233sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8562-1-9

© S.b.Qoriyev, 2022.
© «Zebo print» nashriyoti, 2022.

PEDAGOGIKA FANINING NAZARIYASI ASOSLARI.

Reja:

1. "Pedagogika nazariyasi" tushunchasi mazmuni.
2. Ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar
3. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi.
4. Pedagogika nazariyasini o'rganish zaruriyati.
5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mardonov, U.Zokirova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: "Ishonch hamkor", 2021.
2. R.A. Mavlonova va boshq. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: "Fan va texnologiya", 2018.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: Sano-standard, 2017.

Tayanch iboralar: pedagogika, maqsad, vazifa, ob'yekt, predmet, kategoriya, pedagogikaning sohalari, pedagogika fani metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. "Pedagogika nazariyasi" tushunchasi mazmuni. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paida - «bola» va gogike - «yetaklayman») ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqbol g'oyalari asosida tarbiyalash, unga ta'lim berish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika- ta'lim va tarbiya jarayonini yaxlitlikda o'rganadigan fan sohasi.

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati - uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratganligi bois didaktika (ta'limnazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (ta'lim nazariyasi, yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi») ta'limning nazariy jihatlari, ta'lim jarayonining mohiyati, qonun va qonuniyatlari, tamoyillari, o'qituvchi va o'qituvchi

faoliyati, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi masalalarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi - pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, tarbiya turlari, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish masalalarini o'rganadi.

Ijtimoiy tarbiya fuqarolik, aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil etiladi.

Pedagogika fanining ob'yekti - yaxlit pedagogik jarayon.


Pedagogika fanining predmeti - ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, shakl, metod va vositalari.

Pedagogika fanining vazifalari. Pedagogika fani shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi. Pedagogika fani maqsadi va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlardagi mazmuni, davlat va jamiyat rivojlanish strategiyasi, uning hayotida yetakchi o'rin tutuvchi g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar handa huquqiy jamiyatni barpo etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, ilg'ot xorijiy tajribalar asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari. Bizga yaxshi ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalarini tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha kategoriya deb ataladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim katego-riyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.



3-rasm. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyog'arashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya - muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongini, xulq-atvori va dunyog'arashini tarkib topirish jarayoni.

Ta'lim - o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib topirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyog'arashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim - shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lumotlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma - shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati. Malaka - muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning Avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot - ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyog'arash majmui.

Shakllantirish - shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yori asosida tarkib topirish jarayoni.

Rivojlanish - shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

2. Ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

2017 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim tizimini xalq bilan mulqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim vazirligi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrda PF-5198-son Farmoni va «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 30-sentabrda PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari etib belgilandi:

birinchidan, maktabgacha ta'limsohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'limmuassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;

beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarning ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish;

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.